



## ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI TAHLILIDA IJTIMOYIY HAYOT MUAMMOLARI

Toshpo'latova Barchinoy

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, har bir davrda ijtimoiy hayot muammolari dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. O'tmish saboqlaridan bizga ayonki, taqdirning shafqatsiz hukmi qora xalqni shunchaki chetlab o'tmagan. Abdulla Qahhor mana shunday, davr muammolarini, o'zbek xalqining xx- asr boshlarida kechirgan qora kunlarini o'zining hikoyalarida real badiiy tasvirlar bilan jonli tasvirlab bergan ijodkordir. Ushbu maqolada buyuk qalam sohibi, hikoyanavis Abdulla Qahhorning hikoyalari tahlilida ijtimoiy davr muammolari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** jamiyat, ijtimoiy davr, qashshoqlik, satira, drammatizm savodsizlik.

Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida hozirgi Leninobod oblastining Asht rayonidagi qishloqlardan birida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchilik kasbi bilan shug'ullangan, ammo kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmaganligi sababli u doim ish izlab qishloqma-qishloq ko'chib yurardi. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Bu qishloqlar deyarli bir - biridan farq qilmas, hammasida ham uch - to'rttadan kazo-kazolarni aytmasa, oddiy xalq fuqoro erta- yu kech mehnat bilan band paxta ekib, bunday yetishtirib, bog' parvarish qilib umr o'tkazar lekin topgani o'ziga yuq bo'lmay nochorlik, qashshoqlik iskanjasida dars kechardi. Zulmatli hayotning behisob xotiralari keyinchalik jonli lavhalarda yorqin obrazlarda qaytadan gavdalanish uchun Abdulla Qahhorning zehninga o'rganishib qolgan edi. Abdulla Qahhor 10 yoshga to'lganda Buvaydadagi eski maktabga o'qushga kiradi, biroq ko'p o'tmay oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'onda maktabida qo'qonlik Muhammadjon domla qo'lida o'qiydi. Muhammad domla ilg'or fikrli, ma'rifatparvar odam edi. Uning maktabida bolalar partada o'tirib bilim olar edi. U shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish uyg'otgan, ehtimol shu bois, Abdulla umrining oxirigacha Sa'diy, Xayyom, Xofiz, Bedil, Lutfiy, Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qiladi. 1922-1924- yillarda Abdulla Qahhor Qo'qon pedtexnikumida o'qiydi. Talabalik yillarida uning she'rlari va maqolalari tez-tez chop etilib turadi. U shu tariqa adabiyot olamiga kirib kela boshladi.

Abdulla Qahhorning hikoya janriga kirib kelishi 1926-yil Gorkiy asarlari bilan tanishishi va bu asarlar unda hikoya yozish istagini kuchaytirganini aytadi.

"Men - deb yozadi adib - rus tilini Gorkiy asarlari bo'yicha o'rgandim deb g'urur bilan ayta olaman. " Chalkash" hikoyasini o'qib chiqqach menda hikoya yozishga havas uyg'ondi." Chalkash " men uchun ijod namunasi o'qish o'rganish ishimda qo'limdan tushmaydigan kitobim bo'lib qoldi " , - deydi Abdulla Qahhor.



Abdulla Qahhorning nazmdan tortib nasrgacha bo'lgan keng qamrovli ijodida hikoya janri yoqqol ajralib turadi. Uning hikoyalarida o'zgacha rux ,pafos ufurib turadi. Uning hikoyalari adabiyot gulshanidagi boshqa ijodkor yozuvchilarning hikoyalaridan tubdan farq qiladi. Abdulla Qahhor shunchaki qalam tebratmaydi, u hikoyalarida davr uchun dolzarb bo'lgan mavzuni yoritadi. U hikoyalarida kam so'z qo'llab ,butun boshli hikoyaning mazmunini sodda ,ravon tilda yoritib bera oladigan mohir hikoyanavis hamdir. U hikoyaga kiritgan oddiy bir detal ham ma'lum bir maqsad bilan kiritiladi va o'zida ma'lum bir yukni tashiydi .Aynan, Abdulla Qahhor "Qahhor" qilib turgan mana shunda desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning hikoyalarini o'qir ekanmiz ,bularga amin bo'lamiz.

Qahhor hikoyalarining har birida davrning ijtimoiy muammolari goh kuchli dramatism zaminiga goh achchiq satira ostida yoritiladi va buning yechimi sirliligicha qoldirilib ,kitobxonning o'ziga havola etiladi. Bundan tashqari ,Qahhor hikoyalarida epigraflardan unumli va o'rinli foydalangan ijodkordir. Kitobxon butun hikoyani o'qimasa ham epigrafdan hikoya mazmunini anglab oladi.

Quyida Abdulla Qahhor hikoyalarini tahlil qilishdan avval shuni aytib o'tishni joiz bildik. Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi yuzasidan qilingan ishlar, monografiyalarni o'qib shunga guvoh bo'ldikki, Qahhorning ba'zi hikoyalari syujetida keltirilgan har bir voqea aynan o'zining boshidan kechirgan ,o'zi guvoh bo'lgan voqealar asosiga qurilganligi, uning hikoyalariga kiritilgan har bir qahramon uning yaqinlari ekanligiga amin bo'ldik. Bu haqidagi ma'lumotlar hikoyalar tahlili davomida batafsil yoritilgan.

Abdulla Qahhorning " Boshsiz odam " hikoyasini tahlil qilar ekanmiz bexosdan xayolimizga Mahmudxo'ja Behbudiyning " Padarkush" yohud o'qumagan bolaning holi dramasi ko'z oldimizga keldi. Aynan bu ikki asarni yonma- yon qo'yishimizga sabab, ikkala asarning ham bosh qahramonlari - Faxriddin hamda Toshmurod o'z shaxsiy fikriga ega bo'lmagan ,savodsiz, otaning ko'magiga tayanib qolgan ,erka ,tanti obrazlar sifatida gavdalanadi. Asar yakunida har ikkala qahramonning ham hayoti havas qilarli darajada yakun topmaydi. Abdulla Qahhor bu hikoyasi orqali o'z davridagi savodsiz, omi xalqning fojiviy ahvoli birgina Faxriddin orqali beradi. Bundan tashqari, bu hikoyasi orqali o'sha davrdagi ayollarning erki o'zi qo'lida bo'lmaganligini asardagi Mehri obrazi orqali ko'rishimiz mumkin .Asarda Mehrining o'gay otasi qistovi bilan o'zining o'g'ay akasi Faxriddinga majburlab turmushga berilishi holatlariga guvoh bo'lamiz.

Asarda Faxriddin hech qanday mustaqil fikrga ega bo'lmagan ,hatto shaxsiy hayotda ham otasining aqliga tayangan ,jilovini qaysi tomonga bursa o'sha tomonga yuradigan "manqurt" obraz sifatida gavdalanadi. Bu obraz o'zida majoziy yukni ham tashigan ,ya'ni o'zbek xalqining qullikdagi ahvoli ,Rossiya davlatlariga qaramligi, yagona bir fikrga ,yagona davlatga ega emasligiga ham ishoradir.

Asardan olingan quyidagi parchalarga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak:

1. - Faxriddin hali yoshsizlar .Uch - to'rt yil bolasiz yurgan yaxshi. Doktor shu ishlarni bilarmikan?



Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir - ikki qimirlatib ,bilagi bilan burnini artib javob berdi:

- Men bilmaskan,dadam biladilar-da!
- Qo‘ying ,qo‘ying ...Dadangizdan so‘ramang...Uyat bo‘ladi.

2.E,hoy!...Yaxshimisan.....,hoy! - dedi Faxriddin

Mehri sekin :

- Keling - dedi
- Yaxshimisan...uyda sen yo‘q,dadam qiynalib qoldilar.Yomon bo‘lar ekan...
- Kundan - kunga battar bo‘lgan edim olib tashlashdi....Naq o‘layozdim....
- Xayriyat
- Ko‘rdim ,boshi yo‘q

- Iy! ... dedi Faxriddin og‘zini va ko‘zini katta ochib bolaning ham boshi bo‘lmaydimi! Dadamdan so‘rab ko‘raychi.

Abdulla Qahhor bu hikoyasini achchiq kinoya va istehzo xajv bilan yozadi.Asarda Mehrini tilidan aytilgan " boshi yo‘q" jumlasini Faxriddinga qarata hayqiriq sifatida yangraydi

O‘rgangan ma‘lumotlarga tayangan holda hikoyadagi Faxriddin obrazining prototipi Abdulla Qahhorning amakisining o‘g‘li G‘afforjon ekanligiga amin bo‘ldik.Bu haqda yozuvchining avtobiografik asari "O‘tmishdan ertaklar" qissasida ko‘rishimiz mumkin.

Ijodkorning yana bir qizib bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan " Anor" nomli hikoyasida jamiyat keltirib chiqargan , ijtimoiy qashshoqlik va uning oqibatlarini haqida yozadi.Bu hikoya bir necha qahhorshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan .Birgina buyuk tanqidchi , qahhorshunos olim Ozod Sharafiddinovning tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak ,olim hikoya haqida quyidagicha xulosaga keladi: " Turibjon va xotining fojiasi baxtsizligining sababi - ijtimoiy tengsizlikdir " .Olim hikoyani sotsializm talablariga ko‘ra : insonlarni ijtimoiy jihatdan baravar qilib yashatishi tomonlama tahlil qiladi.Ammo afsuski,hech bir jamiyatda fuqarolar ijtimoiy jihatdan teng huquqli emaslar.Buning isboti " Anor " hikoyasida ham o‘z aksini topgan.Mazkur hikoyada ijtimoiy tengsizlik bilan bir qatorda o‘sha davrning juda katta fojialaridan biri - nochorlik ,kambag‘allik kabi illatlar aks ettirilgan.Asar bosh qahramoni Turobjon nochorlik,kambag‘alchilik tufayli xotining boshqorong‘u paytida yegisi kelgan anorni olib kelib berolmagani va xotini g‘ururiga tegib gapirishi oqibatida ,hatto o‘g‘irlikka borish holati tasvirlanadi.Bir necha olimlar tomonidan hikoyada "anor " detali noto‘g‘ri tanlanganligi ,negaki hech bir zamonda anor mevasi qimmat sotilmaganligini aytib o‘tishgan.Bundan fikrlarga qarama-qarshi ravishda,o‘z fikrlarimni aytib o‘tishni joiz bildim.Hikoyani xx- asr boshidagi o‘zbek xalqining nochorlik , ocharchilik holatidan kelib chiqib,tahlil qiladigan bo‘lsak , " anor " detali juda to‘g‘ri tanlangan ,negaki o‘sha zamonda ba’zi insonlar hattoki non olib yeyishga qurbi yetmagan,vaholanki non o‘sha davrda ham hozirda ham qimmat yegulik hisoblanmagan .Bu fikrlardan quyidagi xulosa kelishimiz mumkin: "o‘sha davrdagi insonlar uchun non yeyish shukronalik hissi bo‘lsa ,anor ular ularning xayollaridagi orzu bo‘lib qolgan" . Bundan tashqari,hikoyadagi "anor" detali majoziy yuk ham tashigan .Ijodkor nochorlik



sababli Turobjon va xotini o'rtasida darz ketgan munosabatlarini, anor donalari kabi sochilib ketganligiga qiyoslaydi.

Ana shunday shafqatsiz ocharchilik davrida taqdirning shafqatsiz kaltagi oddiy xalqning boshiga yog'rilgan. Davlat tepasida turgan mansabdor shaxslar esa o'z foydalari evaziga oddiy xalqdan foydalanishgan. Buni aynan ,yozuvchi ijodidagi "Bemor" va " O'g'ri" hikoyalarida ko'rishimiz mumkin. "Bemor " hikoyasida bemor Sotiboldining xotini emas, aslida "jamiyat bemor" yoki " O'g'ri" hikoyasida Qobil otaning ho'kizni o'g'irlagan inson o'g'ri emas ,ho'kizni topib berish maqsadida "o'z nafsini qondirgan shaxslar o'g'ri" dir .

Xulosa qilib aytganda, o'zbekning atoqli va zabardast yozuvchisi o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor davr bilan hamnafas yashadi. Ijodkor o'z manfaatlari yo'lida qalam tebratmadi, u xalq dardi bilan birga yashadi. Qahhor hikoyalarida g'aflat uyqusida yotgan ,o'zligini tanib ulgurmagan o'zbek xalqiga murojaat qildi. Davrining dolzarb muammolarini real tasvirlar orqali ba'zida kulgili satira ba'zida achchiq dramatism bilan fosh qilib ,kitobxonlar qalbiga kirib bordi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor .Asarlar. Besh jildlik. Birinchi jild . "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti" Toshkent 1987

2. Marxabo Qo'chqorova Abdulla Qahhor - istiqlol adabiyotshunosligi ko'zguisida ( monografiya) Toshkent : Akademnashr, 2018

3. Marxabo Qo'shqorova " Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari" .

"Muharrir "nashriyoti . Toshkent 2011 .Ozod Sharafiddinov asarlarida Abdulla Qahhor shaxsiyati 99-bet

4. Marxabo Qo'chqorova " O'tmishdan ertaklar tadqiqi" Yangi asr avlodi Toshkent 2016